



URUSH DAVRI – TUSH

Ashurova Muhabbat Jumanazar qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishi yo'nalishi talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6325929>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-Fevral 2022
Ma'qullandi: 15 - Fevral 2022
Chop etildi: 20 - Fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

Afg'on urushi, qurbonoilar, Soat, tush, mauzer, Rustam

ANNOTATSIYA

Maqolada "Tushda kechgan umrlar" asari ustida kichik tadqiqot olib borilib, asarning badiiy g'ovaviy jihatlari ochib berilgan

„Tushda kechgan umrlar“ — o'zbek yozuvchisi O'tkir Hoshimov qalamiga mansub roman. Muallif asarni 1993-yilda yozgan. Ilk bor „Sharq yulduzi“ jurnalida bo'lib-bo'lib chop etilgan. Kitob holidan Toshkent shahrida „Sharq“ nashriyotida nashrdan chiqqan. Roman muallifning eng mashhur asarlaridan biridir. Bu asarni o'qir ekanmiz urushning insoniyat hayotini naqadar og'irlashtirib, unutilmas izlar qoldirganiga guvoh bo'lamiz. Mutolaa qilish jarayonida beixtiyor asar qahramonlari bilan birga yashab, ularning quvonchiga ham dardiga ham sheriklik his etasiz. Urush tugab ketganiga qaramay undan qolgan asoratlar natijasida hali-hamon o'ziga kelolmagan va urushdan orttirgan dard iskanjasidan qutila olmagan taqdirilar fojeasiga guvoh bo'lasan kishi. Romanda keltirilgan voqealar qamrovi juda keng: 30-yillarning

mash'um „qatag'on“ qilish manzaralari, 80-yillardagi ko'pchilikning yostig'ini quritgan Afg'oniston urushining tasvirlari, o'sha davr oralig'ida sodir bo'lgan «o'zbek ishi»... Insonlar hayotida sodir bo'ladigan bu uchta yirik, juda katta hajmli voqealarni bir-biri bilan bog'lashda yozuvchi mahorati, uning voqealarni ipga marjon kabi tera olgani tahsinga sazovor. Asarning boshlanishiyoq bizni fojeaviy voqeaga tayyorlab boshlaydi: „Kuz to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi. Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi... Yer-u ko'kni kafandek oppoq tuman chulg'aydi. Oq zulmat orasidan qarg'alarning xosiyatsiz fig'oni eshitiladi“¹. Shu tasvirning o'ziyoq e'tiborli kitobxonni sergak torttiradi. Asar nega aynan bunday inson ruhini bo'g'ib qo'yuvchi tasvir bilan boshlangan deya o'ylashga majbur etadi. Asar bejizga kuz tasviri bilan boshlanmagan. Asar boshlanmasi aynan

¹ Hoshimov O'. „Tushda kechgan umrlar“ T. Yangi asr avlodi. 2018 3-bet



asar oxirida ham takror keladi va kitobxon birdan asar boshlanmasi uni asar kulminatsiyasidan ogoh etganini anglab qoladi. Asar bosh qahramoni Rustam afg'on urushi qatnashchisi. U urushda juda ko'plab odam bolasi aqliga sig'dirishi mushkul bo'lgan vaxshiyliklar guvohi bo'ldi. O'q tegib, yaralandi. Ruhiy kasallik orttirdi. "O'tkir Hoshimov o'zigacha bo'lgan boshqa yozuvchilardan farqli o'laroq, urushdagi qahramonliklar haqida emas, uning asl qiyofasini, kulfatini, baxtsizligini ko'rsatib berdi.

"Tushda kechgan umrlar" romanida bir lavha bor. Rustam tankda ketayotib, o'liklarni mashinaga ortayotgan askarlarni ko'rib qoladi-da, to'xtaydi. Tushib qarasa, uning eng yaxshi ko'rgan do'sti Temurning o'ligini ham ortishayotgan bo'ladi. Temurning afti tanib bo'lmas darajada pachoqlab tashlangani uchun uni qo'lidagi tatiurovkadan taniydi. Yana bir dahshatli holat: Temurning olati kesib olingan edi (Afg'on urushida yaralanib qo'lga tushgan askarlarnig qulog'i, burni va boshqa a'zolarini kesib tashlash holatlari ko'p bo'lgan.) Buni ko'rgan Rustam o'zini bilmay qoladi, "quturib" ketadi... U bir hovliga tanki bilan bostirib kiradi. Hammayoq chang-to'zon. Tankdan tushadi. Birpasdan so'ng ishkom tagidagi qizil ko'ylakka ko'zi tushadi. Beixtiyor yaqin boradi. Qarasa, ko'ylak emas, yiqilib yotgan ayol ekan. Rustam uning ustiga egiladi. "Qo'rqmang, opa, biz sizga tegmaymiz", deb yelkasidan tutsa, ayol yonboshga ag'dariladi. Bu go'zal ayolning o'q teshgan bo'ynidan oqqan qon yarim yalang'och ko'ksiga tushadi. Shu payt

vayrona kulbadan bir yarim-ikki yoshlardagi ishtonchang bola chiqib, entak-tentak qadam bosib, ayolning boshiga keladi. "Mo'rjona", "mo'rjona", ("mo'rjona" - ona degani) deb, uni ema boshlaydi. So'ng bosh ko'taradi-da, chirqillab yig'lab yuboradi. Bolaning og'zidan sut emas, qon oqar edi! Yozuvchi sizni bizga ko'rsatib bermoqchi bo'lgan urushning noinsoniy qiyofasi xuddi shunday edi. Bunday fojiaga dosh berolmagan Rustam "Otaman! Hammangni otaman! O'zimniyam otaman!" - deb hayqiradi va hushidan ketib, kontuziya bo'lib qoladi. Uning ruhiy holatidagi o'zgarishda nafaqat yarador bo'lishining, balki ana shu manzaralarning ham "hissa"si bor"². Shunga qarmay o'z yurtiga, e'tiqodiga, qadryatlariga sodiq qoldi. Har qanday vaziyatda ham o'zligidan kechmadi, bo'yin egmadi, o'zligini sotmadi. Halollikni qo'ldan boy bermadi. Or-nomus u uchun eng qadrli "libos" bo'lib qoldi. Uning o'zligini, o'z xalqini, milliy urf-odatlarini qanchalar sevishi domda bo'layotgan to'yni buzishga uringan Grishani "aqlini kiritib qo'ygan" jarayonda yaqqol namoyon bo'ladi. Asar qahramonlarining xarakterlari so'z orqali juda ishonarli tasvirlangan. Asarga tanlangan nom ham o'z vazifasini to'liq bajargan desak mubolag'a bo'lmaydi. Roman nomi ham bejiz bunday tanlanmagan. Adib 70 yil davomida uyquda bo'lgan, uyquda hayot kechirgan millatning ijtimoiy, ma'naviy holatiga ishora beryapti. Asar nomidagi tush so'zini ikki xil tushunish mumkin: birinchisi rostmana tush ya'ni uyqudagi tush. Asar bilan to'liq tanishmasdan avval asar voqealari kimningdir tushida kecharmikan degan

² Ro'ziyeva Z. "Tushda kechgan umrlar" romani badiiyati" BMI 9-10-betlar



mulohazaga borish mumkin. Qahramonlar hayoti tushdagidek o'tib ketadi. Ikkinchisi esa muallif tush deya urush davrni nazarda tutgan bo'lishi mumkin. Asar qahramonlari: Rustam, uning otasi, Komissar Soat G'aniyevich, Qurbonoy xolalarning hayoti xuddi tushdagidek ma'nisiz va alg'ov – dalg'ov o'tdi... Fikrimizcha, ikkinchi fikrimiz asar mohiyatiga mosroq. Sababi urush davri qiyinchiliklari xuddi tushga o'xshardi, odamlar karaxt holda arzini aytadigan Allohdan bo'lak najotkorlari yo'q edi. Urushda yurgan kezlari sovuq suvda beligacha suvga tiqib qo'yishlari evaziga Rustam bepust bo'lib qoldi. Ayolining ko'ziga qaray olmagan vaqtlari ko'p bo'ldi. Jamiyatda adolatsizlik avj oldi. Mansabparastlik va poraxo'rlik ildiz otdi. Shularning bari jam bo'lib Rustamni o'z joniga qasd qilishga majbur qildi. Urush qurbonliksiz bo'lmaydi. Bu asarda ham shunaqa qurbonlarimiz bor. Shunday qurbonlardan yana biri Qurbonoy xola. Adib uning ismini ham topib qo'yan. U haqiqiy ma'nodagi qurbon. Uning otasini nohaq qamashdi. Onasini esa Soat G'aniyevich badnom qildi. Bu isnodga chidolmay onasi o'z joniga qasd qildi. Aslida Qurbonoyga bunday ism qo'yilishi uning eshonlar avlodidan ekanligi va Qurbon Hayiti oyida tug'ilgani bilan bog'liq. Ammo asar rivoji uning ismi orali so'z o'yini qilinganini ko'rsatadi. Uning ismiga ramziy vazifa yuklatilgan. U e'tiqodida mustahkam Xudojo'y musulima. Otasini nohaq qamatgan, onasini badnom qilib o'limga mahkum qilgan, bir paytlar tog'asi Husanni ham o'ldirgan Soat G'aniyevichdek o'zligidan kechgan, tom ma'noda manqurtga aylangan, vahshiyga ham yaxshi munosabatda bo'ladi, buni ham Xudo yaratgan, Xudoga soldim deb qo'yadi. Uning yashashdan yagona

umidi bor – Umida. Qiziga Umida deb ism qo'yan. Orzu-umudlarini undan ko'rishni xohlaydi. To'lagan Qurbonoy xolaning otasi. U yoshligida Soat G'aniyevich Fotimani urib xafa qilganida, Soatning yo'lini to'sgan. Vaqt o'tib Fotimaga uylangan. Soat G'aniyev chekist bo'lgach, To'lagan yoshlikdagi "qarz"larini or-nomusi va o'z hayoti bilan to'ladi. O'zini nohaq tuhmat bilan qamatdi, rafiqasini badnom qildi, qizini yetim qildi. To'lagan ismini, odatda, farzandi turmay, vafot etayotgan ota-ona keyingi farzandlariga qo'yishadi. Bu qahramonimiz ismini ham ikki ma'noda tushunsak va tahlil qilsak yanglish xulosa bo'lmaydi. U birgina yoshlikdagi adolatli ishi uchun vahshiy G'aniyechga nishon bo'ldi. Asarda "Qurbonoy xola ertaklari" degan hikoyacha bor. Shu hikoya Soatning keyingi taqdiriga ishora qiladi. Ya'ni uning barcha qilmishlari va odamlarga qilgan yomonliklari o'z jigarbandlaridan qaytadi. Kundalik hayotdagi kuzatishlarimizdan bilamizki, soat ko'rsatgichi hech qachon orqaga yurmaydi. Bizning qahramonimiz Soat aka ham e'tiqodsizligidan, shuhratparastligidan, vahshiylikdan, o'zini haq deb bilishdan, o'zi to'liq tushunib yetmagan siyosatga xizmat qilishdan ortga qaytmaydigan obraz. Balki shunday xarakter egasi bo'lganligidan ijodkor unga Soat degan ismni tanlagandir. U sovet mafkurasiga itdek xizmat qiluvchi, odamiylik hissiyotlari unga begona bo'lgan mexanizmga aylangan. U asarda shunchaki obraz emas, balki sovet mafkurasining ramzi bo'lib ham bo'y ko'rsatadi, asar voqealari davomida. U o'z rafiqasidan, farzandlaridan ham shubhalanadi. Ularning suhbatini zimdan kuzatadi. Davr mafkurasiga xizmat qilish uchun o'z onasidan ham voz kechgan kimsa. Shu



boisdir, o'z farzandlariga qurol va o'sha davr dohiysining nomlarini qo'ydi. Uning ikki o'g'li bor: Mauzer va Mels. Taqdir taqozosi bilan Mauzer o'ziga qarshi qurol bo'ldi. U Soat G'aniyevichdan va unga o'xshaganlardan hazar qildi. U bilan bir uyda yashashdan nafratlanib, uydan chiqib ketdi. U jurnalist edi. U otasi istagandek harbiy bo'lmadi. Sovet tizimiga xizmat qilmadi, balki otasi hayotini tikkan tizimga qarshi chiqdi. Mauzer aslida urush davrida mashhur bo'lgan to'pponcha nomi edi. Taqdirni qaraganki, shu qurol o'ziga qarshi. Soat aka tirikligidayoq hech kimsiz qoldi. Bir hamsuhbatga zor bo'ldi. Aslida inson uchun eng og'ir jazo uni yolg'iz qoldirish emasmi?! Ijodkor Soat G'aniyevichni biror o'rinda yomonlamaydi, u uchun hukm o'qimaydi. Uning qanday insonligini xatti-harakatlari va ichki monologlari orqali tasvirlaydi.

Asarning yutuqli jihatlaridan yana biri shuki – unda bitta qahramon haqida o'y surmaysiz. Barcha qahramonlar teng huquqlidek, go'yo. Quvonarlisi, adib romanda badiiy mazmunga munosib shakl topa olgan. Rustam, Soat G'aniyevich, Qurbonoy xola kabi obrazlar muallif badiiy niyatini amalga oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Asar urushning ayancli oqibatlarini ko'rsatish bilan birga insoniy tuyg'ularning ham juda kerakli ekanligini, har qanday qiyin holatda ham or-nomusdan, o'zlikdan, e'tiqoddan qaytmaslik kerakligini uqtiradi. Asar kuchli dard va isyon bilan yozilgan. Muallif asarni

yo'zishdan oldin atrofida bo'layotgan jarayonlarni kuzatib larzaga kelgan va asarni yozishga qo'l urgan. Said Ahmad "Tushda kechgan umrlar" asariga quyidagicha baho beradi: "Romanni loqayd, hayajonsiz o'qib bo'lmaydi, u kitobxonni larzaga soladi. Xalq boshiga kulfatdan boshqani solmagan qonli urushni boshlagan telba urushqoqlarga dil-dilidan qarg'ish yog'diradi".³ Muallif shunday deydi: "Tushda kechgan umrlar" romanidan bir qancha boblarni xorijda nashr etiladigan "Ikarus" jurnalida ingliz tilida e'lon qilishayotganda "U nimasi bilan sizlarga yoqadi?" deb so'radim. "Unda siyosat yo'q, ya'ni bu - kommunist, bu - fashist, bu - qizil, bu - oq, bu - do'st, bu - dushman, degan gap yo'q. Bu asarda urush, inson, o'lim, degan uchlik bor», deb javob qilishdi noshirlar".⁴ Haqiqatdan ham asarni shunchaki o'qib bo'lmaydi. Asardan chiqargan xulosa shu bo'ladiki, afg'on urushi insonlar boshiga ko'plab kulfatlarni soldi. Qatag'on siyosati esa undan ham ko'prog'ini "tuhfa" qildi. Bunga sabab nima edi? Javob bitta mustamlakachilik. Birovning haqqiga qo'l cho'zish. Qachonki xalq, davlat mustaqil bo'lsa, bir tan-u bir jon bo'lsa, xalq ichidan xoinlar chiqmasa, uni bosqinchilar xohlaganicha boshqara olmaydi. Qolaversa, insoniyat nima uchun yaratilganini anglab yetsa yer, suv, boylik talashmaydi, qirg'inbarot urushlar bo'lmaydi

³ @mutolaa_sehri

⁴ O'tkir Hoshimov: "Bu daraxtning nomi edi

Yaxshilik, «Markaziy Osiyo madaniyati» gazetasining

bosh muharriri bilan suhbat.ziyouz.com



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hoshimov O' "Tushda kechgan umrlar" T. Yangi asr avlodi. 2018. 271 bet
2. Ro'ziyeva Z. "Tushda kechgan umrlar" romani badiiyati" BMI 49 bet